**Abstract:** This article analyzes the theoretical and practical aspects of transforming the internal audit system in business entities within the context of globalization and the digital economy. It highlights the priority directions for shifting internal audit from a traditional verification function to the role of a strategic partner and advisor to the company. Within the framework of the research, the following were developed: the integration of risk assessment and influencing factors into the annual audit work plan, the formation of a risk-based reporting system, a methodology for evaluating the quantitative and qualitative sufficiency of the internal audit information base, and a procedure for assessing the going concern of business entities. The proposed methodological approaches serve to enhance the stability, security, and management efficiency of business entities.

**Keywords:** Internal audit, transformation, business entity, risk management, annual work plan, information base, going concern.

## KIRISH

Hozirgi kunda global iqtisodiy sharoitlar, raqamlashtirish jarayonlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining murakkablashuvi korporativ boshqaruv tizimida ichki auditning o'рни va ahamiyatini tubdan o'zgartirmoqda. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ichki audit an'anaviy tekshiruvchi va xatolarni aniqlovchi funksiyadan tashkilotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi, xavflarni boshqaruvchi va strategik qarorlar qabul qilishda ko'maklashuvchi maslahatchi darajasiga transformatsiya qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, shaffoflikni oshirish va xalqaro standartlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, mamlakatimiz iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan samarali nazoratni amalga oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Biroq, mavjud ichki audit tizimlarida xavflarni tahlil qilish, axborot bazasining

yetariligi baholash va faoliyat uzluksizligini prognoz qilish kabi yo'nalishlarda uslubiy yondashuvlarni yanada takomillashtirish talab etiladi. Shu sababli, ichki audit tizimini transformatsiya qilish va uni zamonaviy talablarga moslashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot va global raqobat sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining barqarorligini ta'minlash, moliyaviy va operatsion samaradorlikni oshirishda ichki audit xizmatining o'rnini beqiyos. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat korxonalarda ichki audit faoliyati hanzugacha an'anaviy (asosan hujjatlarni tekshirish va xatolarni qayd etish) yondashuvlar doirasida qolib ketmoqda. Bu esa quyidagi asosiy muammolarni keltirib chiqarmoqda:

Xalqaro standartlarga to'liq mos kelmaslik, ya'ni ichki audit jarayonlarining zamonaviy xalqaro standartlar (IIA) talablaridan orqada qolishi;

Xatarlarga asoslanmaganlik — ichki audit faoliyati xatarlarni boshqarishga emas, balki o'tmishdagi xatolarni qidirishga qaratilganligi;

Metodologik bazaning yetishmasligi natijasida transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish bo'yicha mahalliy korxonalarga mos keladigan yagona uslubiy qo'llanma va tavsiyalar yo'qligi.

Shu sababli, xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni transformatsiya qilish, uni xatarlarni boshqarish tizimiga integratsiyalash va raqamlashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ilmiy-metodologik jihatdan ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlarida ichki auditni takomillashtirishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini o'rganish doimo iqtisodchi olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Xususan, ushbu muammolarni tadqiq etishda xorijlik va mahalliy olimlarning ilmiy yondashuvlari quyidagicha guruhlanadi:

Xorijiy olimlarning ilmiy yondashuvlari — ichki audit tizimini takomillashtirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish masalalari Xalqaro ichki auditorlar instituti (The Institute of Internal Auditors – IIA) mutaxassislari, shuningdek, V. Andreyev, V. Burtsev, A. Bogomolov, N. Goloshanov, O. Krishkin, A. Sonin, L. Sotnikova va boshqalar tomonidan o'rganilgan.<sup>1</sup>

Xususan, O. Krishkin o'z tadqiqotlarida risklar va biznes jarayonlarini ichki auditda qo'llash masalalariga, V. Andreyev va A. Sonin esa ichki auditni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlariga alohida e'tibor qaratganlar.

Mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlari: mamlakatimizda ham ichki audit va korporativ boshqaruvni rivojlantirish bo'yicha taniqli iqtisodchi olimlar — A. Avlokulov, K. Axmedjanov, N. Abdiyeva, R. Do'stmuratov, Sh. Ilhamov, A. Karimov, N. Karimov, Z. Mamatov, S. Mexmonov, M. Pardayev, A. To'rayev, B. Xasanov, B. Hamdamov, I. Qo'ziyev va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.<sup>2</sup>

Ularning ilmiy ishlarida ichki auditning umumiy jihatlari, ichki nazorat tizimi bilan bog'liqligi va moliyaviy nazorat masalalari atroflicha o'rganilgan bo'lib, ular milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida audit metodologiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy bo'shliq va tadqiqot zaruriyati — o'tkazilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqorida keltirilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida ichki audit tizimining samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, biznes jarayonlarini chuqur tahlil etish va ichki auditning umumiy tamoyillari yoritilgan bo'lsa-da, quyidagi amaliy va uslubiy masalalar yetarlicha o'rganilmagan:

Ichki audit ish rejasiga xatarlarni (risklarni) baholashni to'liq integratsiya qilish mexanizmlari;

Axborot bazasini miqdor va sifat jihatidan baholashning uslubiy yondashuvlari;

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyat uzluksizligini (going concern) ichki audit orqali kompleks baholash tartiblari.

Adabiyotlar tahlili va mavjud ilmiy bo'shliqlar xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit tizimini an'anaviy tekshiruv funksiyasidan strategik hamkor darajasiga o'tkazishni (transformatsiya qilishni) ilmiy jihatdan asoslash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot ishida sug'urta tashkilotlari ichki audit rejasini riskka asoslangan shaklda tuzish, yig'ma

1 "International Standards for the Professional Practice of Internal Auditing", Institute of Internal Auditors, 2004; Andreev V.D. Vnutrenniy audit. Uchebnoe posobie. – M.: Finansy i statistika, 2003; Burtsev V.V. Sistema vnutrennego kontrolya organizatsiya v sovremennykh usloviyakh khozyaystvovaniya. Auditorskoe vedomosti, 1998; Bogomolov A.M., Goloshanov N.A. Vnutrenniy audit. Organizatsiya i metodika provedeniya. – M.: Ekzamen, 1999; Kryshkin O. Nastolnaya kniga po vnutrennemu auditu. – M.: Alpina Publisher, 2017; Sonin A.M. Vnutrenniy audit. Sovremennyy podkhod. – M.: Finansy i statistika, 2007; Sotnikova L.V. Vnutrenniy kontrol i audit. – M.: Finstatinform, 2000.

2 Avlokulov A.Z. Moliyaviy natijalar hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. diss. avtoref. – T.: 2019; Axmedjonov K.B. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. diss. avtoref. – T.: 2016; Abdiyeva N.Sh. Aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. DSc. diss. avtoref. – T.: 2023; Ilxamov Sh.I. Auditorlik tekshiruvlari jarayonida ichki nazorat tizimini baholash metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. diss. avtoref. – T.: 2018; Mehmonov S.U. Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. diss. avtoref. – T.: 2018; To'rayev A.N. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil etish va uning uslubiyotini takomillashtirish. i.f.d. diss. avtoref. – T.: 2020.



hisobotni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari, axborot bazasini shakllantirish va xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyat uzluksizligini baholash tartibi ishlab chiqildi va ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-nazariy metod, qiyosiy tahlil metodi, amaliy tahlil metodi, statistik va iqtisodiy tahlil metodlari, sintez va induksiya metodlaridan foydalanildi.


### Tahlil va natijalar

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni zamonaviy talablar asosida transformatsiya qilishning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish hamda uning ustuvor yo'nalishlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish asosiy maqsadimizdir.

Hozirgi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining samaradorligini oshirishda ichki auditni xalqaro standartlar talablariga moslashtirish va transformatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy yondashuvlarda ichki auditning yillik ish rejalari asosan o'tgan davrlardagi xatolarni aniqlash yoki standart tekshiruvlar asosida shakllantiriladi. Mazkur yondashuv bugungi kunda yuzaga kelayotgan tezkor iqtisodiy xatarlarni o'z vaqtida baholash va oldini olish imkonini bermaydi.

Ushbu muammoni hal etish maqsadida tadqiqot doirasida ichki auditning yillik ish rejasiga risklarni baholashni integratsiyalash mexanizmi ishlab chiqildi. Taklif etilayotgan yondashuvning mohiyati quyidagi bosqichlardan iborat:

Risklarni identifikatsiyalash va tahlil qilish — korxonaning strategik va joriy maqsadlariga erishishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi xatarlar (moliyaviy, operatsion, huquqiy va boshqalar) kompleks tahlil qilinadi (1-rasm).



1-rasm. Ichki audit yillik ish rejasini rejalashtirish jarayoniga risklarni aniqlash va baholashda ta'sir qiladigan ichki omillar<sup>3</sup>

Tashkiliy tuzilma va vakolatlar aniq belgilanmasa, vakolatlar to'qnashuvi va nazorat bo'shliqlari yuzaga keladi. Ichki nazorat tizimining sustligi moliyaviy xatolar va suiste'mollik xavfini oshiradi. Axborot tizimlari ishonchsizligi operatsion riskni kuchaytiradi. Kadrlar malakasi pastligi yoki almashinuvi yuqoriligi boshqaruv risklarini keltirib chiqaradi. Shuningdek, sug'urta zaxiralari yetarliligi bilan bog'liq likvidlik risklari mavjud. Masalan, ikki bosqichli nazorat bo'lmasa, noto'g'ri to'lovlar amalga oshirilishi mumkin, bu esa yuqori ichki risk sifatida auditda ustuvor hisoblanadi (2-rasm).

3 Muallif tomonidan o'rganilgan ma'lumotlar asosida ishlab chiqildi.



2-rasm. Ichki audit yillik rejasini tuzishda risklarni aniqlash va baholashga ta'sir qiluvchi tashqi omillar<sup>4</sup>

Har bir aniqlangan riskning yuzaga kelish ehtimoli va uning kompaniya faoliyatiga ta'sir etish darajasi (yuqori, o'rta, past) maxsus risklar matritsasi yordamida baholanadi.

Olingan natijalar asosida audit jarayonining davomiyligi va chuqurligi belgilanib, resurslar eng yuqori riskli sohalarga yo'naltiriladi.

Ushbu usulning joriy etilishi ichki audit faoliyatini xatarlarni boshqarish tizimiga to'liq integratsiya qilishga hamda korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ichki audit tizimini transformatsiya qilish jarayonida audit natijalari bo'yicha taqdim etiladigan hisobotlarning shakli va mazmuni ham tubdan o'zgarishi talab etiladi. An'anaviy hisobotlar asosan aniqlangan qoidabuzarliklar va kamchiliklar ro'yxatidan iborat bo'lib, ular ko'pincha boshqaruv xodimlariga operativ qarorlar qabul qilish uchun yetarli tahliliy ma'lumot bermaydi (1-jadval).

1-jadval

Ichki audit yig'ma hisobotining tuzilishi<sup>5</sup>

Bo'lim	Tarkib
1. Sarlavha va kirish qismi	Tashkilot nomi Hisobot sanasi va davri Audit bo'limi nomi Hisobotni kim tayyorlagani
2. Umumiy ma'lumot (Tekshiruv ob'ektlari va auditorlik amaliyotlari)	Tekshiruv ob'ekti yoki bo'limlar Auditning maqsadi va vazifalari Audit metodlari va yondashuvlari (moliyaviy hisob-kitoblar, hujjat tahlili, suhbatlar, joyiga chiqib tekshirish)
3. Audit natijalari	Aniqlangan muammolar (xatoliklar, nomuvofiqliklar, zaif nazoratlar) Har bir muammo bo'yicha tavsif, dalillar va misollar Risk darajasi (yuqori, o'rta, past)
4. Tavsiyalar	Har bir muammo uchun tegishli takliflar Amalga oshirish muddati va mas'ullar
5. Xulosa	Auditning umumiy bahosi (tizim qoniqarli / qoniqarsiz) Tashkilotning holati va rivojlanish yo'nalishlari
6. Ilovalar	Tekshiruv davomida olingan hujjatlar nusxalari Intervyu bayonnomalari Grafik va jadvallar

Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida tadqiqot doirasida riskka asoslangan hisobotlar tizimini shakllantirish tartibi ishlab chiqildi. Taklif etilayotgan yondashuvning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

4 Muallif tomonidan o'rganilgan ma'lumotlar asosida ishlab chiqildi.

5 Muallif tomonidan o'rganilgan ma'lumotlar asosida ishlab chiqildi.



Hisobotning yangi formati: hisobotlar faqatgina o'tmishdagi xatolarni qayd etuvchi hujjat emas, balki korxonada faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy xatolarni tahlil qiluvchi va ularni boshqarish bo'yicha tavsiyalar beruvchi tahliliy hujjatga aylantiriladi (2-jadval).

## 2-jadval

### Ichki audit yig'ma hisoboti (misol)<sup>6</sup>

Kirish

**Tashkilot:** Kapital sug'urta kompaniyasi AJ

**Audit bo'limi:** Ichki audit xizmati

**Hisobot sanasi:** 2025-yil 1-aprel

**Audit davri:** 2024-yil yanvar – 2024-yil dekabr

Umumiy ma'lumot

<b>Sug'urta sohasi:</b> moliyaviy faoliyat, sug'urta shartnomalari, to'lovlar jarayoni, risklarni boshqarish tizimi
<b>Audit maqsadi:</b> moliyaviy hisobotlarning ishonchligi, sug'urta jarayonlaridagi ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash, qonunchilik talablariga rioya etilishini tahlil qilish
<b>Audit metodologiyasi:</b> hujjatlarni tahlil qilish, intervyular o'tkazish, tanlanma asosida shartnomalarni ko'rib chiqish, joyida tekshiruvlar amalga oshirish

## Audit natijalari

№	Aniqlangan muammo	Dalil/misollar	Risk darajasi
1	Sug'urta mukofotlari hisob-kitobida xatoliklar	15 ta shartnomada noto'g'ri mukofot hisoblangan	Yuqori
2	To'lov hujjatlari to'liq shakllantirilmagan	20foiz to'lov ishlarida hujjatlar to'liq emas	O'rta
3	Risklarni baholash mexanizmi yetarli darajada emas	Risk xaritalari muntazam yangilanmaydi	Yuqori
4	Qonunchilikdagi o'zgarishlar to'g'risida xodimlar xabardor emas	Kadrlar bo'limida trening o'tkazilmagan	Past

## Tavsiyalar

№	Tavsiya	Amalga oshirish muddati	Mas'ul bo'lim
1	Mukofot hisobini avtomatlashtirish va tekshiruv mexanizmini joriy etish	2025-yil iyun	Moliyaviy bo'lim
2	To'lov hujjatlari bo'yicha ichki nazoratni kuchaytirish	2025-yil iyul	To'lovlar bo'limi
3	Risklarni baholash mexanizmini yangilash va tasdiqlash	2025-yil sentabr	Risk-menejment
4	Qonunchilik bo'yicha xodimlar uchun trening o'tkazish	2025-yil avgust	Kadrlar bo'limi

## 5. Xulosa

Hisobotga xatolarning darajasini (yuqori, o'rta, past) ko'rsatuvchi vizual risk xaritalari va "svetofor" tamoyili kiritiladi. Bu esa mas'ul shaxslarga muammoli zonalarni bir qarashda aniqlash imkonini beradi (3-jadval).

## 3-jadval

### Risk darajalarining metodologik klassifikatsiyasi<sup>7</sup>

Risk darajasi	Ballar oralig'i	Sug'urta kompaniyasi uchun tavsifi	Hisobotdagi rangi
Yuqori (Kritik)	15 – 25	To'lov qobiliyatiga (Solvency) tahdid, litsenziya talablari buzilishi, yirik firibgarlik.	Qizil

<sup>6</sup> Muallif tomonidan o'rganilgan ma'lumotlar asosida ishlab chiqildi.

<sup>7</sup> Muallif tomonidan o'rganilgan ma'lumotlar asosida ishlab chiqildi.



Risk darajasi	Ballar oralig'i	Sug'urta kompaniyasi uchun tavsifi	Hisobotdagi rangi
O'rta	6 – 12	Ichki tartib-qoidalarning buzilishi, o'rtacha miqdordagi moliyaviy yo'qotishlar.	Sariq
Past	1 – 5	Kam ahamiyatli texnik xatolar, hujjat yuritishdagi mayda kamchiliklar.	Yashil

Har bir aniqlangan risk bo'yicha uni minimallashtirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar rejasi va mas'ul ijrochilarni belgilash tizimi joriy etiladi.

Ushbu hisobotlar tizimining joriy etilishi kuzatuv kengashi va ijrochi organlarga xatarlarning oldini olishga qaratilgan operativ boshqaruv qarorlarini tezkor va asosli qabul qilish imkonini beradi.

Transformatsiya jarayonida ichki auditorlarning xolis va ishonchli xulosalar berishi bevosita foydalaniladigan ma'lumotlarning sifati va hajmiga bog'liq. Hozirgi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlarda axborot bazasini shakllantirish va uni tahlil qilish jarayonlarida yetarlicha uslubiy yondashuvlarning yo'qligi ichki audit samaradorligini pasaytiradi.

Ushbu muammoni hal etish maqsadida tadqiqot doirasida ichki audit axborot bazasining yetarlilik darajasini miqdor va sifat jihatidan baholash metodikasi ishlab chiqildi. Taklif etilayotgan yondashuv quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Miqdoriy ko'rsatkichlarni baholash — axborot tizimlarining mavjudligi, ma'lumotlarning yangilanish chastotasi, hujjatlar hajmi va ularning audit jarayoniga mos kelish darajasi aniqlanadi.

Sifat ko'rsatkichlarini baholash — ma'lumotlarning to'liqligi, aniqligi va ichki audit standartlari talablariga mos kelish darajasi tahlil qilinadi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar yig'indisi asosida axborot bazasining yetarlilik darajasi 10 ballik shkalada baholanadi va uning asosida tekshiruvni boshlash yoki qo'shimcha ma'lumot talab qilish bo'yicha qaror qabul qilinadi (4-jadval).

4-jadval

Ma'lumotlar bazasini baholash shkalasi<sup>8</sup>

Koeffitsiyent (Gaudit)	Daraja	Auditorning qarori
0.8 – 1.0	Yuqori	Baza ishonchli. Masofaviy auditni to'liq o'tkazish mumkin.
0.5 – 0.7	O'rta	Ma'lumotlar bor, lekin qo'shimcha hujjatli tekshiruv (tanlanma) talab etiladi.
0.5 dan past	Past	Baza ishonchsiz. Tizimli xatolar xavfi yuqori. Audit to'xtatilishi yoki qayta rejalashtirilishi kerak.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan "Ichki audit axborot bazasining yetarlilik darajasini baholash metodikasi" — bu shunchaki texnik ko'rsatkich emas, balki "Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJda ichki audit samaradorligini ta'minlovchi fundamental poydevordir. Shu bilan bir qatorda, axborot bazasining baholanishi auditorlik tekshiruvining 500-AXS talablari doirasida tashkil etilishini ta'minlaydi.

Ushbu metodika auditorlarga tekshiruvlar uchun yetarli va to'g'ri ma'lumotlar bazasini mustaqil ravishda tekshirish hamda xatolar ehtimolini minimallashtirish imkonini beradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va barqarorligini saqlashda ularning kelgusida ham faoliyat yuritish qobiliyatini baholash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. An'anaviy ichki audit asosan o'tgan davrdagi moliyaviy natijalarni tekshirish bilan cheklanib qoladi.

Ushbu kamchilikni bartaraf etish maqsadida tadqiqot doirasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyat uzluksizligini baholash tartibi ishlab chiqildi. Taklif etilgan yondashuvning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat (5-jadval):

8 Ma'lumotlar bazasini baholash shkalasi va integrallashgan baho formulasi muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



## 5-jadval

Buxgalteriya va ichki audit yondashuvlarining faoliyat uzluksizligiga ta'siri tahlili<sup>9</sup>

Xususiyat	Buxgalteriya yondashuvi	Ichki audit yondashuvi
<b>Maqsad</b>	Hisobotlarni to'g'ri shakllantirish	Riskni erta aniqlash va barqarorlik
<b>Usul</b>	Matematik hisob-kitoblar	Kompleks risk-tahlil va prognozlash
<b>Xulosaning asosi</b>	Faqat o'tgan davr faktlari	O'tgan davr + Kelajakdagi ehtimollar
<b>Natija</b>	Passiv kuzatuv	Aktiv boshqaruv qarori

Taqqoslovchi tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, buxgalteriya va ichki audit yondashuvlari faoliyat uzluksizligini ta'minlashda sezilarli farqqa ega.

An'anaviy buxgalteriya yondashuvi asosan hisobotlarni to'g'ri shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, ichki audit yondashuvi risklarni erta aniqlash va korxonalar barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Shu bilan auditor xulosasi korxonalar rahbariyati uchun strategik qaror qabul qilishda foydali va ishonchli bo'ladi.

Faoliyatni to'xtatish yoki inqirozga uchrash xavfini oldindan ogohlantiruvchi indikatorlar majmuasi ishlab chiqildi.

Likvidlik, to'lov qobiliyati va rentabellik kabi moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, kadrlar o'zgarishi, qonunchilikdagi o'zgarishlar va bozor talablarining o'zgarishi kabi nomoliyaviy omillar ham baholanadi.

Aniqlangan xavflar asosida kompaniya rahbariyatiga inqirozli holatlarning oldini olishga qaratilgan zaxira strategiyalari va tavsiyalar majmuasi taqdim etiladi.

Ushbu yondashuvning joriy etilishi xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv qarorlarining barqarorligini ta'minlashga va kompaniya xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, globallashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit tizimini transformatsiya qilish zaruriyati keskin ortib bormoqda. An'anaviy nazoratga yo'naltirilgan ichki audit modeli zamonaviy talablarni to'liq qondira olmaydi va korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda yetarli darajada samarali emas.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Ichki auditni riskka asoslangan yondashuv asosida tashkil etish korxonalarda xatarlarni o'z vaqtida aniqlash va ularni minimallashtirish imkonini beradi;

Auditning yillik ish rejasiga risklarni baholash mexanizmlarini integratsiya qilish audit resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi;

Riskka asoslangan hisobotlar tizimini joriy etish boshqaruv qarorlarining sifatini oshiradi va ularni tezkor qabul qilishga xizmat qiladi;

Ichki audit axborot bazasining yetarliligini baholash metodikasi audit xulosalarining ishonchliligini oshiradi;

Faoliyat uzluksizligini baholash tizimi korxonalarda inqiroz xavfini oldindan aniqlash va profilaktik choralarini ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit xizmatini xalqaro standartlar, xususan IIA talablariga to'liq moslashtirish zarur;

Ichki audit faoliyatiga zamonaviy raqamli texnologiyalar (Big Data, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan audit dasturlari)ni keng joriy etish lozim;

Korxonalarda risk-menejment tizimi bilan ichki audit o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish tavsiya etiladi;

Ichki auditorlarning malakasini oshirish va ularni strategik boshqaruv jarayonlariga faol jalb etish muhim hisoblanadi;

Ichki audit faoliyatini tartibga soluvchi milliy uslubiy qo'llanmalar va standartlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, ichki audit tizimini transformatsiya qilish xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda ularning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

9 Muallif tomonidan o'rganilgan ma'lumotlar asosida ishlab chiqildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. The Institute of Internal Auditors (IIA). International Professional Practices Framework (IPPF). – Altamonte Springs, USA, 2017.
2. The Institute of Internal Auditors (IIA). Global Internal Audit Standards. – 2024.
3. COSO. Enterprise Risk Management – Integrating with Strategy and Performance. – New York, 2017.
4. Andréyev V.D. Vnutrenniy audit: uchebnik. – Moskva: Finansy i statistika, 2018.
5. Burtsev V.V. Organizatsiya vnutrennego audita. – Moskva: INFRA-M, 2019.
6. Bogomolov A.M. Vnutrenniy audit i kontrol v organizatsiyax. – Moskva, 2020.
7. Krishkin O.V. Risk-oriyentirovanniy vnutrenniy audit. – Moskva: Eksmo, 2019.
8. Sonin A.K. Vnutrenniy audit: sovremennie podxodi. – Sankt-Peterburg, 2018.
9. Avlokulov A. Korporativ boshqaruv va ichki audit. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
10. Axmedjanov K. Moliyaviy nazorat va audit asoslari. – Toshkent, 2020.
11. Abdiyeva N. Ichki auditni tashkil etish va rivojlantirish yo'nalishlari. – Toshkent, 2022.
12. Dustmurotov R. Audit nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
13. Ilhamov Sh. Korxonalarda ichki nazorat tizimi. – Toshkent, 2021.
14. Karimov A., Karimov N. Audit va nazorat tizimlari. – Toshkent, 2020.
15. Mamatov Z. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy tahlil. – Toshkent, 2018.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari (korporativ boshqaruv va audit tizimini rivojlantirishga oid hujjatlar).
17. O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2021.
18. International Federation of Accountants (IFAC). Handbook of International Quality Control, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements. – 2022.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)